

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafruz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilarabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk"dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

“O’tgan kunlar” romanidagi lakunar birliklar

Shaxlo Baxodirova¹

Abstrakt

Abdulla Qodiriy romanlarini ko’zdan kechirar ekanmiz, adibning ona tilimiz xazinasidan asar voqeasini ifodalash va obrazlar xarakterini ochib berish uchun tanlab olingan so’zlari tabiiy, ularni ishlatish usuli va yozuvchining tili ravonligiga amin bo’lamiz. Maqolani yozishdan maqsad yozuvchi romanidagi lakunalarni yig’ish va ularni tahlil qilish. O’zbek romanchiligi asoschisi, o’zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo’shgan buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriydir. Abdulla Qodiriy asarlarini tili jihatdan o’rganish bo’yicha ma’lum ishlar qilinyapti. Biroq bu ishlar juda jiddiy tarzda, tizimli bir yo’nalishda davom ettirilishi zaruriyati bor. Abdulla Qodiriy ijodi, asarlari ko’plab yangi-yangi tadqiqotlar uchun manba – obyekt bo’lib xizmat qiladi. Yig’ilgan lakunalar o’zbek adabiy tilini boyitish uchun qo’yilgan qadamlardan biri bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: *lakuna, mahorat, sheva, umumxalq tili, leksika, roman, jadidchi, tadqiqot, muqobilsiz so’z.*

Kirish

Bugungi kunda jadidchilikka va uning namoyondalari g’oyalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. O’zbek romanchiligi asoschisi, o’zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo’shgan buyuk yozuvchi Abdulla Qodiriydir. “Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma’rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o’z qimmatini va ahamiyatini hamon yo’qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ’ib etish bizning ustuvor vazifamizdir”, – deb yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashi yig’ilishida ta’kidlab o’tdi. Shular jumlasidan yetuk adiblarimizdan biri Abdulla Qodiriy bu yil 130 yoshga to’ladi. Qodiriyning asarlari o’zbek xalqi hayotiga bag’ishlangan. A.Qodiriy asarlarini o’rganish va uning boy merosini yanada kengroq tahlil qilish nafaqat ma’naviyatimizni yuksaltirishda balki, o’zbek adabiy

¹ Baxodirova Shaxlo – Chirchiq davlat Pedagogika universiteti tayanch doktoranti.

E-pochta: shaxlo.bakhodirova@mail.ru

ORCID: 0009-0002-4094-1879.

Iqtibos uchun: Baxodirova Sh.B. “O’tgan kunlar” romanidagi lakunar birliklar. *O’zbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 88-99.

tili soʻz boyligini oshirish uchun ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi.

Abdulla Qodiriy asarlari tilining lingvistik tahlili mustaqilligimizdan keyingi yillarda birmuncha yangi kuch olmoqda. Biroq Abdulla Qodiriydek buyuk adib va soʻz sanʼatkori asarlari tilini atroflicha va keng miqyosda turli lingvistik aspektlarda jiddiy tadqiq qilish bu boradagi boʻshliqni toʻldirishga xizmat qiladi.

Til muttasil boyib boruvchi ijtimoiy hodisa boʻlib, har bir davrning oʻziga xos koʻzgusi sifatida jamiyatning turli sohalaridagi oʻzgarishlarni, rivojlanish va inqirozlarni, shuningdek, xalq maʼnaviyati va ruhoniyatini oʻz aslicha akslantirib turadi. Ayniqsa bu xususiyat til leksikasida aniq seziladi, kishilik jamiyatining ongidagi har bir oniy tafakkur va taxayyul tilda oʻz tajallisini koʻrsatadi.

“Necha ming yillardan beri tilda voqeʻlanib kelayotgan oʻsish-oʻzgarishdan iborat muntazam harakat til tirikligini taʼminlaydigan, uning uzun umriga tirgak tutadigan va shu tariqa uning sohibi boʻlgan qavmning yugurik zamon va yumaloq makondagi qadru qimmatini salomat saqlaydigan bemisl bir qudratdir” (Mahmudov 2015, 3). Bu harakatning mohiyatini anglashga yoʻnalgan tilshunoslik ilmi til xususiyatlari va qonuniyatlarini oʻrganishda davom etar ekan, uning yangidan yangi tilsimotlarini kashf qilib, til takomiliyatini taʼminlashga intilaveradi. Shu tariqa tillar boyishda davom etadi va soʻzlarning ohori toʻkilmasdan saqlanishi, ayniqsa, badiiy asarlarda aks etadi.

Abdulla Qodiriy asarlarini koʻzdan kechirar ekanmiz, adibning ona tilimiz xazinasidan asar voqeasini ifodalash va obrazlar xarakterini ochib berish uchun tanlab olingan soʻzlari tabiiy, ularni ishlatish usuli va yozuvchining tili ravonligiga amin boʻlamiz. Abdulla Qodiriy asarlaridagi ***lakuna***larni yigʻish, ularni tahlil qilish orqali adabiy tilimiz boyligini oshirishimiz hech shubhasizdir.

Lakuna fransuzcha *lakun* – “boʻshliq”, “chuqurlik”, “boʻsh joy” degan maʼnolarni anglatadi. Lakuna atamasining keng qoʻllanilishi va ommalashishi XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Ayni shu yillarda lingvokulturologiya, tarjimashunoslik, lingvomamlakatshunoslik sohalarida tillarni qiyosiy oʻrganish, ularning bogʻliqligi va farqlanishlarini tadqiq etishga eʼtibor ancha kuchaydi. Mazkur tadqiqotlarda lakuna tushunchasi *oraliq, lakuna, zid soʻzlar, lakunalar yoki til xaritasidagi oq dogʻlar, tarjima qilib boʻlmaydigan soʻzlar, muqobilsiz, nol soʻz, muqobilsiz yoki fonli leksika, tasodifiy lakunalar, tarjimasiz leksika* kabi atamalar bilan nomlangan (Usmonova 2014, 79). Garchi turli manbalarda turlicha nomlangan boʻlsa-da, tilda

o'z nomiga (nomemaga) ega bo'lmagan tushuncha (semema)ni ifodalovchi mazkur hodisa haqida tadqiqotchilarning qarashlari bir-biriga yaqin.

Lakuna tushunchasining keng o'rganilishi uning yondosh hodisalardan farqlanishini va alohida lingvistik kategoriya sifatida tan olinishini tezlashtirdi. Dastlab, barcha muqobilsiz so'zlarni lakuna sifatida baholash avj olgan bo'lsa, keyingi yillarda lakuna terminining semantik qamrovi torayib, konkretlashdi (terminlashdi). Mazkur jarayonda lakuna tushunchasining mohiyati aniq va oson tushuniladigan darajagacha muayyanlashdi.

N.Dun sinxron lakunalarning ikki xil bo'lishini ta'kidlaydi: tilararo lakunalar va tilning ichki lakunalari (introlingval lakunalar) (Дунъ, 131).

I.A.Sternin va G.V.Bikova muayyan xalqlarning o'zaro aloqalaridagi lakunalarni 2 ta asosiy turga – ichki va tilararo lakunalarga ajratadi (Стернин 1998, 55-67). Bir til materiali asosidagi lakunalar ichki lakuna hisoblanadi. Til ichidagi lakunar birliklar kam o'rganilgan. I.A.Sterninning ta'kidlashicha: "Har bir tilda ko'p sonli til ichidagi lakunar birliklar mavjud, ya'ni garchi ma'nosiga ko'ra yaqin leksemalar mavjud bo'lsa-da, tilning leksik tizimida bo'sh, to'ldirilmagan joylar uchraydi" (Стернин 1999, 210). Ikki va undan ortiq tillardagi lakunalar tilararo lakunani, ya'ni tashqi lakunani yuzaga keltiradi.

Bugungi kunda lakunani o'rganish faqat ikki tildagi farqli jihatlarni aniqlashdangina iborat emas. Til leksikasining tizimli to'ldirilishi, boyitilishi uchun ham mazkur lingvistik hodisani chuqurroq tadqiq etish lozim. Tadqiqotchilar o'z ona tillarini o'zga til bilan qiyoslab, leksik sathdagi bo'shliqlarni aniqlashga va ularni bartaraf etishga intilmoqda, shuningdek, tafakkur va tasavvur bilan bog'liq, ongdashakllanadigan yangi tushunchalarning paydo bo'lishini hamda ularning nomlanish jarayonlarini ham obyektiv o'rganishga harakat qilmoqdalar. O'zbek tilshunosligida ham bu boradagi ishlarni jonlantirish, milliy til tarkibidagi lahja va dialektlarni adabiy til bilan qiyoslash badiiy asarlardagi lakunalarni jamlash adabiy til leksikasidagi lakunalarni aniqlash hamda to'ldirish til taraqqiyotini, sofligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Lakuna terminini tushunchaning mavjud bo'lmasligiga nisbatan emas, balki so'zning mavjud bo'lmasligiga nisbatan qo'llashni ma'qullaymiz. Chunki tushunchaning bo'lmasligiga nisbatan lakuna (bo'shliq) terminini qo'llash mantiqqa to'la muvofiq emas. O'zbek tilida shunday tushunchalar borki, adabiy tilda nomlanmagan, ammo

shevalarda mazkur tushunchalarni nomlovchi soʻzlar mavjud.

Asosiy qism

A. Qodiriy romanlari tilining ahamiyatli jihati shundaki, undagi voqealar muallif yashagan davrdan oldin sodir boʻlgan, yozuvchi oʻsha davrni aks ettirish uchun davr tilini oʻrgangan. “O’tkan kunlar” romani xalq orasida juda ommalashgani, hatto oʻqishni bilmaydiganlar ham eshitib zavqlangani bejiz emas, chunki asar xalqchil tilda yozilgan, demak, uning hech qaysi soʻzlari sun’iy emas. Adibning oʻz va uning qahramonlari tilida uchragan har bir soʻz va gapda ularning ruhiy-ma’naviy kayfiyati, orzu-niyati, insonga, uning hayotiga, tabiat hodisalariga munosabati, dunyoqarashi va madaniy saviyasi, his-tuygʻu va xulq-atvori aks etib turadi. Romanning dastlabki qismlaridanoq ana shunday goʻzallikka duch kelaveramiz.

“Ayrim hollarda ma’no kishilar ongida paydo boʻlgani holda ifodalash zarurati yoʻqligi uchun, unga shakl tanlanmasligi va soʻz holida shakllanmasligi kuzatiladi” (Mirtojiyev 2010, 26). Boshqacha aytganda, leksik birliklar mavjudligi xalq ongida muayyan konseptning mavjudligini koʻrsatadi, ammo tushunchaning mavjudligi uchun lingvistik birlikning mavjud boʻlishi shart emas (Голубева). Oʻzbek milliy madaniyatida ulugʻ kishilarning gapini qaytarmaslik (gapini ikki qilmaslik, e’tiroz bildirmaslik) konsepti mavjud. Biroq uni nomlovchi leksema yoʻq, shu bois uni izoh yoki soʻz birikmasi bilan tushuntirishga toʻgʻri keladi. Mazkur holat tilda konseptga mos leksemaning doimo mavjud boʻlavermasligini koʻrsatadi. “Tabiiy til obyektiv olamning va bilishning turli xil sohalariga tegishli boʻlgan predmetlar, hodisalar hamda ularning xossalari va munosabatlarini qamrab olish va ifoda qilishdek katta imkoniyatga ega. U semantik jihatdan yopiq sistema hisoblanadi. Boshqacha aytganda, tabiiy til boshqa tillarga murojaat qilmagan holda, mustaqil ravishda oʻzini qurishi va ifoda qilishi mumkin” (Хайруллаев 1993, 33). Ayni shu xususiyatlar sabab eng kam leksemaga ega boʻlgan til ham oʻz egalari nazdida yetarlicha ifoda imkoniyatlariga ega deb baholanadi. A. Qodiriy romanlari matnida oʻzbek tilining milliy xususiyatlari namoyon boʻlgan. Adib grammatik shakllarni oʻziga xos tarzda qoʻllash orqali ularning funksional imkoniyatlarini kengaytirishga muvaffaq boʻlgan. “O’tgan kunlar” romanida shunday jumla bor: *“Dutorni sozlash uchun **reza** kuylardangina olib turgʻan mashshoq, Otabek kutmagan joyda Navodan boshlab yuborgʻan edi.”* (O’tgan kunlar, 123) Jumlada kelgan reza soʻzi qisqa kuy ma’nosida kelgan. *Reza* (Reza f. — ushoq, parcha; yogʻoch qirindisi) soʻzining *rezavor* shakli ham mavjud ya’ni rezavor mollar (mayda xil mollar), rezavor

o'simliklar (mayda ekinlar) yoki rezalab kesmoq (maydalab kesmoq) (O'TIL 2007, 397) kabi holatlarda ham uchratamiz.

“O'tgan kunlar” romanida so'zlarning qo'llanilishi sejiloligi bilan o'qiguvchini har safar o'ziga tortadi. *“Otabek Hasanalining do'koni vositasida Ali bilan yaqinda tanishqan edi. Ul ichi kirsiz, **serkulki**, ochiq-qina bir yigit bo'lub, bek bilan go'yo ko'b yillardan beri bo'lg'an tanishlarcha muomala qilar edi.”* (“O'tgan kunlar”, 163) Bu yerda *serkulki* ta'rifi sifat ma'nosida kelgan bo'lib, Ali ismli yigitga kirishimli, tabassumli yigit ma'nolarida qo'llangan. Ta'kidlash kerakki, adib aksariyat hollarda tashqi ko'rinish, harakat, holatni tasvirlayotganda, albatta, qahramon ismini yodga oladi. Va ismning nechog'lik muvofiqligiga urg'u beradi.

Hozirgi kunda so'zlashuvdan chiqib borayotgan ayrim misollar ham mavjud: *“Bek bir-ikki **zarangni** ichkandan keyin, yamlanib ko'kka qarab yotib oldi. Undog' bo'lsa ustidan buni ichib yuboring, dedi kulib, bir **zarang** qimiz uzatdi.”* (“O'tgan kunlar”, 164) *Zarang* (1.yog'ochi qattiq daraxt 2.Zichlanib ketgan, qattiq, berk (yer haqida) (O'TIL 2007, 154-155) so'zi yog'och idishlarga nisbatan ham qo'llanishi mumkin. Bu yerdagi jumlada ham xuddi shunday yog'och idishga solingan ichimlik nazarda tutilgan. Bu yerda yozuvchi aynan ta'rif bermay to'g'ridan-to'g'ri zarang so'zini qo'llab ketganidan o'sha paytlarda bu so'z iste'molda ko'p qo'llanilganini anglashimiz mumkin bo'ladi. Hozirgi kun uchun bu so'z lakuna hisoblanadi ya'ni tushuncha bor ammo, bu so'zni o'rnini bosuvchi muqobil so'z qo'llanilmay qolgan.

Asarda so'zlashuv nutqida faol qo'llaniladigan so'zlar orasida insonga xos xususiyatlar va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi so'zlar ham salmoqli ulushga ega. Zero, inson suhbat jarayonida, asosan, o'zganing ishlarini, yurish-turishini, xulq-atvorini, kechmishini tahlil qilishga, baholashga e'tibor qaratadi.

Asarda lakunalarning fe'l shaklida uchrashiga ham misollar keltiramiz. *“Ichkarida O'zbek oyim mehmonlarni kuzatib bo'lib, Kumush bilan onasidan **ho'ppak** olar (gina qilar) edi.”* (O'tgan kunlar, 188) Bu yerda *ho'ppak* so'zi O'zbek oyimning Kumush bilan uning onasidan gina qilayotgani haqidagi ma'no anglashiladi. Ho'ppak olar-gina qilar, biroz jaxli chiqar ma'nolarida qo'llangan bo'lib, *ho'ppak olar* so'zini fe'l lakuna sifatida qarash mumkin. Buni emotsiya, his-tuyg'u bilan bog'liq lakuna deb olish ham mumkin.

Kiyim va kiyinish bilan bog'liq har bir tushuncha azaldan muhim hisoblangan va xalq shevalarida ularning aksariyati to'liq nomlangan. Bu esa shevalardagi mazkur so'zlarning adabiy tildagi

shu sohaga oid lakunani to’ldirishda katta imkoniyatlarga ega ekanligini ko’rsatadi.

Predmet, kiyim bilan bog’liq lakuna sifatida hozirda ham uchrab turadigan *duxoba* so’zini ham asarda uchratishimiz mumkin. *“Zolning to’rida, kichkina haldor bir eshikcha yonida, atlas ko’rpacha ustida o’n besh yoshlar chamaliq, qizil duxobadan kiyingan ko’rkam bir o’g’lon palov yeb turar edi.”* (O’tgan kunlar, 38) Bu yerda *duxoba* so’zi kiyim ma’nosida kelgan bo’lib, ba’zan qimmatbaho matoli buyumlarga nisbatan ham qo’llanilgan. *“Endi duxoba va atlaslar ustidagina o’lturmoqqa qanoatlanmay o’z sha’niga, o’z qudratiga muvofiq tojlar, taxtlar yasamoqchi.”* (O’tgan kunlar, 59) (*Duxoba* 1 Orqasi ip, yuzi tekis va qalin ipak tuklar bilan qoplangan mato; baxmal, barxit. Qizil *duxoba*. Qora *duxoba*. *Duxoba* ko’rpa. Moshrang *buxoba* do’ppili, to’qqiz-o’n yashar chiroylikkina bola — bola-larning kattasi edi. (Oybek, Tanlangan asarlar) (O’TIL 2007, 796) Demak, *duxoba* qimmatbaho matoli kiyim yoki ko’rpalarga, umuman, matoli narsalarga nisbatan qo’llanilgan. Yana shunday narsa otiga nisbatan qo’llanilgan, milliy madaniyat bilan bog’liq lakunalaridan biri **to’qoch** so’zini keltirishimiz mumkin. *“O’zbek oyim bo’g’irsoq qovirtirish, talqon tuydirish, to’qoch yopdirish bilan mashg’ul bo’ldi.”* (O’tgan kunlar, 204) To’qoch (1 Katta bo’g’irsoq. 2 Kulcha non.) (O’TIL 2007, 269) so’zini hozirgi kunda so’zlashuvda uchratmaymiz. Bu jumlada yozuvchi to’qoch so’zini kulcha non ma’nosida qo’llagan. Bu so’zni milliy qadriyatlarimiz bilan bog’liq lakuna sifatida baholashimiz mumkin.

Til leksik tizimining boshqa sathlarga nisbatan juda faol va o’zgaruvchan ekanligi ko’pgina adabiyotlarda qayd etilgan. Bu o’zgarish, asosan, lisoniy, nutqiy ehtiyojlar sabab yuzaga keladi. Qayd etish kerakki, til va tafakkurning izchil taraqqiyotida dastlab tushunchaning paydo bo’lishi va uni nomlashga ehtiyoj tug’ilishi obyektiv haqiqatdir. Shu o’rinda lisoniy-nutqiy ehtiyojni tavsiflash zarurati paydo bo’ladi.

Misollarimizdan shuni ko’rishimiz mumkinki, lakunalar ko’proq pretdmetlarga doir bo’lishi mumkin. Shunday yana bir misolimiz *“objuvoz”*. Ammo, hozirgi kunda ham bu terminni ba’zi hududlarda qo’llanilishini uchratishimiz mumkin. *“Yaqin oradag’i objuvoz poyko’pining zarbi yerni silkitib-silkitib to’lqin berar edi.”* (O’tgan kunlar, 215) (*Objuvoz* (f. - suv + - yog’och yoki tosh o’g’ir) 1 Suv kuchi bilan yuradigan, sholi oqlaydigan qurilma. Salomni etakdagi objuvozdan sholi obketayotgan kishilar ko’ribdi. Sh. Xolmirzayev, Og’ir tosh ko’chsa. Sherbek o’z ovoizidan o’zi qo’rqib ketdi: yuragi

objuvozdek gurs-gurs urardi. S. Anorboyev, Oqsoy. 2 Shunday qurilma o'rnatilgan xona; objuvozxona.) bu misolni ham milliy qadriyatlarimiz bilan bog'lashimiz mumkin. Lakunalar ko'proq milliy qadriyatlar bilan bog'liqligi uchun realiyalar bilan o'xshab ketadi. Lekin hozir biz bir til ichidagi lakunalarni (introlingval lakuna) o'rganayotganimiz uchun bu misollarni lakuna sifatida olishimiz mumkin.

Jamiyat taraqqiy etib borar ekan, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar va uning lisoniy imkoniyatlari davrning talab va ehtiyojlariga moslashib boradi. Ayni shu sabablar bilan til leksikasi ham o'z borlig'ini yangirtirib, yashartirib, to'kislashtirib hayotiy faoliyatini davom ettiraveradi. Tilning zamonlar osha yashashi va insonlarga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishida vaqt o'lchovining ham o'z ta'siri bor. Davr o'tishi bilan barcha voqeiylik kabi tilda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu tabiiy jarayon sifatida tushunilishi kerak.

Ba'zi so'zlarimizning adabiy tilda muqobili uchrasada, uning boshqa ma'nolarda qo'llanilishi lakunalarni vujudga keltiradi. *"Yonchiqdan o'nga yaqin oltinlarni sanoqsizcha olib, qo'rboshig'a uzatdi: - Taqsir... sizga atag'an nazrimiz edi..."* ("O'tgan kunlar" 36-bet) Masalan, **yonchiq** (1 To'n, chakmon va sh. k. larning ichki yon tomoniga tikilgan cho'ntak(cha). -Hademay elga qahatchilik bo'lg'ay, ~ dedi \Bug'rohoji\ qalamtaroshini yonchig'iga solar ekan. M. Osim, O'tror. 2 Pul solish uchun yonda olib yuriladi-gan xaltacha; hamyon. Homid yonchig'ini chiqarib, bir qo'lidan ikkinchi qo'lga oltinlarni sanabtushira berdi. ("O'tgan kunlar".) (O'TIL 2007, 45) so'zini hamyonga nisbatan emas balki, kiyim ichidagi cho'ntakka nisbatan lakuna deb qarashimiz mumkin. Misol, *"Hasanali ham iljayib yonchiq kavlashka tutindi va. - O'g'ulmi, holva? - deb so'radi xotinidan."* (O'tgan kunlar, 214) Bu yerda kiyimi ichidagi cho'ntak nazarda tutilgan.

Abdulla Qodiriy so'z qo'llash mahorati shu qadar mohironaki, o'sha payt uchun shevaga oid so'z hisoblangan bo'lsada o'quvchiga estetik zavq bera oladigan tarzda jummalarni tuza olgan. *"Sodiqning javobi uning ustidagi yukni tag'in ham og'irlashtirg'andek sezilib ul boshini quyiga engashtirdi va chuvoq soqolini tuzatib fikrda qoldi."* (O'tgan kunlar, 102) (*chuvoq*: Chuvalangan, chuvalashib, chalkashib ketgan.2. Kunchuvoq ayn. oftobchuvoq. Qiz-kelinchaklar qalin ust-boshlarini tashlab, yengil kiyinib olishgan.. kizlar kunchuvoqqa o'tirib, kashta tikadi. N.Fozilov, Oqim. Chilla uyqusini olib bo'lgan ayiq polvon o'zini kunchuvoqqa tashladi. "Saodat".) (O'TIL 2007, 549) Chuvoq so'zi harakat-holat bilan bog'liq lakuna bo'lib, hozirgi kunda qo'llanilmaydi. Asarda chuvalashgan yoki chalkashib ketgan

deb qo'llashni o'rniga yozuvchi *chuvoq* soqoli deya ta'rif beradi. Balki etimologiyasiga ko'ra *chuvoq* so'zi chuvalangan yoki chalkashib ketgan so'zining qisqargan shaklidir.

Hayvonlar nomlari bilan bog'liq lakunalar ham mavjud. Adibning ochiq ifoda etilishi muloqot xulqiga to'g'ri kelmaydigan tushunchalarni salbiy bo'yoqli boshqa vositalar bilan qo'llagan holatlari kuzatildi. Fikrimizcha, bu kontekstda disfemizm sifatida namoyon bo'ladi. Biroq adibning voqelik, shaxs yoki narsa haqida yorqin tasavvur uyg'otish, shuningdek, o'quvchida kuchli taassurot qoldirish hamda o'zining munosabatini ochiq namoyon qilish maqsadi disfemizmlardan o'rinli va unumli foydalanishini ta'minlaydi. (Кадирова 2012, 17) *“Tovshingni o'chir, **mochaxar...** o'g'lingni o'lim'ga olib borayotqanim yo'q, nihoyati bir piyola choy ichadi-ku keladi!”* dedim. (O'tgan kunlar, 139) (Mochag'ar (f. ^s.b. - urg'ochi eshak| Mochaga nisbatli haqoratni bildiradi (ayollarga nisbatan qo'llanadi). Anovi qish-loqda Chinor degan bir mochag'ar bor edi.. bir domla bilan o'ynashib yurib, unga tegib oldi. Sh. Rizo, Qor yog'di, izlar bosildi. Iloji bo'lsa, u mocha/ar bilan boshlig'ingiz gaplash-sin. N.Qobil, Unutilgan sohillar.) (O'TIL 2007, 725) yozuvchi bu jumlasida haqoratli so'z sifatida qo'llagan *mochaxar* so'zi asalida urg'ochi eshak hayvonlariga nisbatan qo'llanilgan. Ammo jumlada hayvonga o'xshatish sifatida salbiy ma'noda qo'llanilgan. Yozuvchu birgina shu jumlasida bilan vaziyatni keskin axvoldaligini ko'rsatib bergan.

Xulosa

Abdulla Qodiriyning so'z qo'llash mahorati haqida o'z zamondoshlari va keyingi avlod adabiyotshunoslari tomonidan munosib fikrlar bildirilgan. Biroq til badiiy tafakkur mahsuli ifodalovchisi ekan, adib mahoratining ulug'vorligini ta'minlovchi asosiy vositadan biri bo'lgan til imkoniyatidan foydalanishini chuqur va atroflicha o'rganish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, adibning individual nutqiga atroflicha baho berish, lakunalar lug'atini tuzish, qo'llagan til birliklarining statistik tavsifini berish amaliy ahamiyatga ega.

Romanlarning til xususiyatlari chuqur lingvistik, lingvopoetik, lingvodidaktik, lingvomadaniy, kognitiv-pragmatik va lingvoma'naviy tadqiq etilishi lozim. Badiiy asarlarda qo'llanilgan ayrim bugungi kun uchun zarur bo'lgan grammatik vositalardan, lakunalardan bugungi kunda foydalanish, ularni muloqot jarayoniga olib kirilishi lozim.

Tildagi leksik lakunani to'ldirishda tilning reprezentativ (kuzatishda berilgan) shakli – nutq jarayoni muhim ahamiyatga ega.

Ayniqsa, barcha nutq ko'rinishlarini o'zida mujassamlashtira oluvchi badiiy asarlarni tahlil qilish orqali til ichidagi leksik lakunalarning to'ldirilishi, xususan, bu borada dialektizmlarning ahamiyati xususida yetarlicha tajriba to'plash mumkin.

Asarning (Abdulla Qodiriyning badiiy asarlarining) barcha qisimlari – to'liq matni, hech bo'lmaganda, yuqoridagi tarzda tahlil qilib chiqilganidan keyingina Abdulla Qodiriy asarlarining tili xususida, shevaga oid so'zlarni qo'llash mahoratiga aniq bir bahoni berish imkoniyati tug'iladi.

Albatta, bunday tahlillarsiz ham yozuvchi asarlari tiliga baho berish mumkin. Biroq bu baho nisbiylik harakteridagi bahodir. Yozuvchining "O'tkan kunlar" romani tili haqidagi barcha ijobiy fikrlar, qanchalik asosli bo'lmasin, hali qiyomiga yekazib aytilgan fikrlar emas, nisbiy fikrlardir. Yuqorida berilgan tahlillar ham "Abdulla Qodiriy o'z asarlari tiliga jiddiy e'tibor bilan qaragan, u xalq tilini bilgan, uning imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalanishga harakat qilgan", – degan fikrni tasdiqlashga xizmat qiladi.

Jumla tuzishda so'z tanlashning nihoyatda muhim ekanligi adib tomonidan qayta-qayta ta'kidlangani bejiz emas. Chunki so'z fikrning aniq, lo'nda va mantiqli ifodasi uchun xizmat qilishi lozim. Abdulla Qodiriy ana shunga o'quvchi e'tiborini tortmoqchi. Mana shu o'zgachalik o'zbek adabiy tilining o'ziga xos tarzda sayqal topishini, umumxalq o'zbek tilining eng oliy shakli bo'lgan o'zbek adabiy tilining to'la, hozirgi kundagi holatida shakllanishini ta'minlagan, bu tilning boy, ta'sirchan, tushunarli, mantiqli, aniq nutq, jo'yali nutq tuzish uchun to'la yaroqli ekanligini isbotlaydi. Abdulla Qodiriy ijodini, uning o'lmas asarlarini jiddiy o'rganish, tahlil qilish, ijod yo'liga, yozuvchilik mahoratiga, tilimizga, tilga munosabatiga, xolis va to'la baho berish vaqti keldi.

Shu boisdan Abdulla Qodiriy asarlarini tahlil qilish orqali asardagi shevaga xos so'zlardan foydalangan holda lakunalarni aniqlaymiz. Bu holat, bir jihatdan, shevalarning olis tarixiy davrlar nafasini so'z semantikasida saqlab kelayotgan xazina ekanligini ta'kidlasa, ikkinchi jihatdan shevalarning adabiy tilni boyituvchi ichki manba sifatidagi xususiyatini asoslaydi.

Abdulla Qodiriy mohir so'z san'atkori sifatida o'z ijodida til va ma'naviyat, madaniyat mushtarakligining uyg'un holda ko'rinishlarini namoyon qilib, o'zbek ma'naviyati, milliy ibo, nazokat va andishani go'zal va dilbar tilimizda ifoda etish mahoratini namoyish etdi.

Adabiyotlar

- Rahmon, V. (2004). O‘zbek romanchiligining shoh asarlari. – T.: Adabiyot, badiiyat, abadiyat.
- Стернин, И.А. (1997). Лексическая лакунарность и понятийная безэквивалентность. – Воронеж.
- Xolmanova, Z. Nasriyeva D. (2022). O‘zbek shevalaridagi lakunar birliklar lug‘ati – Toshkent: Bookmany print.
- Дунь, Н.Л. Интролингвальные лакуны в лексической системы русского языка. Вісник СумДУ. Серія філологія.
